

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SUN’IY INTELLEKT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Ermatov Sherzodbek Latibjonovich
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Email:ermatovsher56@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18956674>

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogika yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarining sun‘iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun‘iy intellekt vositalarining ta‘lim jarayoniga kirib kelishi bilan yuzaga kelayotgan pedagogik, axloqiy va metodik muammolar ochib beriladi. Xorijiy va milliy olimlarning qarashlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlashi, axloqiy mas‘uliyati hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda sun‘iy intellekt savodxonligining o‘rni asoslanadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida sun‘iy intellekt savodxonligini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish zamonaviy ta‘lim tizimi oldidagi muhim vazifa sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar. sun‘iy intellekt savodxonligi, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mas‘uliyat, raqamli ta‘lim.

Аннотация. В статье анализируется социально-педагогическая необходимость развития искусственно-интеллектуальной грамотности будущих учителей педагогических направлений. Рассматриваются педагогические, этические и методические проблемы, возникающие в условиях активного внедрения инструментов искусственного интеллекта в образовательный процесс. На основе взглядов зарубежных и отечественных ученых обосновывается значимость формирования критического мышления, профессиональной ответственности и компетенций будущих педагогов в контексте искусственного интеллекта. Разработка методики формирования ИИ-грамотности на основе компетентностного подхода рассматривается как важная задача современной системы образования.

Ключевые слова. искусственный интеллект, компетентностный подход, критическое мышление, будущий учитель, педагогическая ответственность, цифровое образование.

Abstract. The article analyzes the socio-pedagogical necessity of developing artificial intelligence literacy among future teachers in pedagogical education. It examines pedagogical, ethical, and methodological challenges caused by the integration of artificial intelligence tools into the educational process. Based on national and international research, the study substantiates the role of AI literacy in fostering critical thinking, professional responsibility, and key competencies of future teachers. The development of an AI literacy methodology based on the competency-based approach is presented as an essential task of modern education systems.

Keywords. artificial intelligence literacy, competency-based approach, critical thinking, future teacher, pedagogical responsibility, digital education.

Zamonaviy raqamli muhitda sun‘iy intellekt (SI) vositalari ta‘lim jarayoniga tobora chuqur kirib bormoqda. SI tizimlari o‘quv materiallarini shaxsiylashtirish, axborotni tezkor tahlil qilish, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish kabi imkoniyatlar orqali ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotchilar ushbu jarayonning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda muayyan xavf-xatarlarini ham qayd etadilar. Xususan, N. Selwyn sun‘iy intellektdan tanqidsiz foydalanish ta‘limda tayyor javoblarga suyanish, mustaqil fikrlashning susayishi hamda pedagogik mas‘uliyatning algoritmlarga “yuklanib qolishi”ga olib kelishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Bu holat bo‘lajak o‘qituvchilarda SI bilan ishlash madaniyatini, tanqidiy pozitsiyani va pedagogik nazoratni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Sun‘iy intellekt sharoitida o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik mas‘uliyati yanada ortadi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatadigan, qarorlarning tarbiyaviy va ijtimoiy oqibatini oldindan ko‘ra oladigan subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Milliy ilmiy yondashuvlarda ham aynan mas‘uliyat, axloqiy pozitsiya va refleksiya masalalari alohida urg‘u bilan yoritiladi. Jumladan, J.I. Nishonova ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish mexanizmlarini kognitiv

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

(hodisani tahlil qilish), emotsional (empatiya, hamdardlik) va xulqiy (javobgarlikni his etish) komponentlar birligi orqali izohlaydi. Mazkur yondashuvni SI kontekstida sharhlaganda, bo‘lajak o‘qituvchining raqamli hamda SI savodxonligi uning kasbiy yetukligining ajralmas tarkibiga aylanayotganini ko‘rish mumkin. Zero, SI vositalari ta‘limiy vaziyatlarni modellashtirish, stsenariylar yaratish, muammoli holatlarni tahlil qilish imkonini bersa-da, yakuniy pedagogik xulosa va qaror mas‘uliyati baribir inson — o‘qituvchi zimmasida qoladi.

SI vositalaridan noto‘g‘ri yoki nazoratsiz foydalanish ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli ham mavjud. Amaliyotda bunday xavflar o‘quvchi va talabalarda plagiatga moyillik, tayyor axborotga qaramlik, reflektiv va ijodiy fikrlashning sustlashuvi kabi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Xalqaro ekspertlar esa ta‘limda SI qo‘llanilganda o‘qituvchining pedagogik nazorati susaymasligi, aksincha, kuchayishi lozimligini qayd etadilar. Demak, SI ta‘lim jarayonida “o‘qituvchi o‘rnini bosuvchi” emas, balki o‘qituvchining kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida to‘g‘ri talqin etilishi zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni SI savodxonligiga aynan talabalik davridayoq o‘rgatish zarurati ham ilmiy jihatdan asoslanadi. Tajribaviy ta‘lim nazariyasiga ko‘ra, kasbiy kompetensiyalar shaxsning faol o‘quv faoliyati jarayonida, real muammolarni hal etish orqali samarali shakllanadi. Shundan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilar SI vositalari bilan ishlashni faqat nazariy darajada emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, holat tahlili, muammo yechish, reflektiv tahlil kabi faol metodlar orqali egallashi lozim. Bu esa SI natijalarini tanqidiy baholash, xatolik va tarfakashlik ehtimolini ko‘ra olish, axloqiy-me‘yoriy cheklolarga rioya qilish kabi ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Milliy ta‘lim siyosatida ham pedagog kadrlarning kasbiy va ma‘naviy yetukligini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu yo‘nalish o‘qituvchining mas‘uliyati hamda kompetensiyalari ta‘lim sifati bilan bevosita bog‘liq ekanini anglatadi. Shu bilan birga, SI ning jadal kirib kelishi pedagogika yo‘nalishi talabalari tayyorgarligi bilan zamonaviy talablar o‘rtasida qator ziddiyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

Sun‘iy intellektning jamiyat va ta‘lim tizimiga jadal kirib kelishi bilan pedagogika yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi o‘rtasida sezilarli ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Birinchi ziddiyat – bu **jamiyatda SI vositalaridan foydalanishning kengayishi bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarligi yetarli emasligi** masalasidir. Xorijiy olim N. Selwyn ta‘kidlaganidek, “texnologik imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, pedagoglarning ularni samarali va tanqidiy foydalanish ko‘nikmalari ko‘pincha yetarli emas”. Shu bilan birga, O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar (Yo‘ldasheva, 2022) shuni ko‘rsatadiki, pedagogika yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarning sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmagan, ular ko‘pincha texnik jihatdan minimal bilimga ega va tanqidiy baholash ko‘nikmalari kam. A.O‘.Mirzayev va M.Q.Sobirovalar “SI vositalaridan foydalanish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish – ularning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadigan, zamonaviy ta‘lim talablariga moslashuvchan mutaxassis sifatida shakllanishini ta‘minlaydigan muhim omil hisoblanadi” deb ta‘kidlaydi. Bundan ko‘rinadiki bo‘lajak o‘qituvchilarda texnik imkoniyatlardan samarali foydalanish va tanqidiy yondashish kerak.

Ikkinchi ziddiyat – **SI vositalari mavjudligi ulardan ongli va tanqidiy foydalanish metodikasining yetarli ishlab chiqilmaganligi**. UNESCOning *Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers* (2021) hujjatida ta‘kidlanishicha, “SI vositalari ta‘lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda, lekin pedagogik metodikalar yetarli emas, bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilarning texnologiyadan ongli foydalanishini cheklaydi”. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarni SI vositalarini pedagogik vazifalar kontekstida tanqidiy va ongli qo‘llashga o‘rgatish metodikasining rivojlanmaganligi o‘quv jarayonining sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Uchinchi ziddiyat – **kompetensiyaviy yondashuv talab qilinishi SI savodxonligini shakllantirish mexanizmlarining aniq belgilanmaganligi**. Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik jarayonni natijaga yo‘naltirishda samarali vosita hisoblanadi. Perrenoud (2000) ta‘kidlashicha, “kompetensiya – bu shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini murakkab vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir”. Shu bilan birga, pedagogika yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarida SI savodxonligini shakllantirishning aniq metodologik mexanizmlari, integratsiyalashgan modullar va baholash vositalari milliy kontekstda hali ishlab chiqilmagan. Bu esa, kompetensiyaviy yondashuvni amalda qo‘llashni cheklaydi va pedagog kadrlarni zamonaviy raqamli sharoitga mos tayyorlashga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, mavjud ilmiy ziddiyatlar pedagogik, ijtimoiy va axloqiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash va SI savodxonligini rivojlantirmaslik pedagogik qarorlar qabul qilishda xatoliklarga, o‘quvchilarda plagiat va tayyor javoblarga qaramlikka olib kelishi mumkin. UNESCO va

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

OECD hujjatlarida ham ta’kidlanganidek, “o’qituvchining tanqidiy pozitsiyasining yetishmasligi texnologiyadan foydalanish jarayonida axloqiy va pedagogik xatoliklarga sabab bo’lishi mumkin” (UNESCO, 2021; OECD, 2021).

Shu asosda, mazkur tadqiqotning maqsadi pedagogika yo’nalishi bo’lajak o’qituvchilarining sun’iy intellekt savodxonligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va tajriba-sinov orqali uning samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida SI bilan ishlashda tanqidiy fikrlash, axloqiy mas’uliyat va pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyalarini bir butun tizim sifatida shakllantirish masalasi markaziy o’rinni egallaydi. Keyingi bo’limlarda ushbu metodikaning metodologik asoslari, komponentlari hamda amaliy mexanizmlari izchil yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury Academic, 2019. 210 p.
2. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO, 2021. 45 p.
3. OECD. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris: OECD Publishing, 2021. 96 p.
4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. 256 p.
5. Perrenoud P. Dix nouvelles compétences pour enseigner. Paris: ESF éditeur, 2000. 190 p.
6. Yo’ldasheva Sh. Bo’lajak o’qituvchilarda raqamli va sun’iy intellekt savodxonligini shakllantirish masalalari // Pedagogika. Toshkent, 2022. №3. B. 45–52.
7. Mirzayev A.O’., Sobirova M.Q. Bo’lajak o’qituvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish omillari // Zamonaviy ta’lim. 2023. №2. B. 33–39.
8. Nishonova J.I. Talabalarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. Toshkent: TDPU, 2020. 98 b.